



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI

100017, Toshkent sh., Istiqlol ko‘chasi 29-uy, Tel.: (998 71) 203-50-50

www.imv.uz, info@imv.uz

2024 yil. “ 16 ” may

05/53-5-10343-sonli

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi, viloyatlar
hokimliklari

Qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-yanvardagi 03/1-3480-sonli topshirig‘i bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda **bir oy muddatda** issiqlik ta‘minoti korxonalarining issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tariflarni qayta ko‘rib chiqib, tasdiqlash choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida, bugungi kunga qadar faqatgina Toshkent shahri va Surxondaryo viloyati issiqlik ta‘minoti korxonalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun tariflar qayta ko‘rib chiqilgan holda tasdiqlangan.

Issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tarif darajalarining pastligi sababli (oxirgi marotaba 2019-yilda qayta ko‘rib chiqilgan) korxonalar xarajatlarini qoplash darajasi respublika bo‘yicha o‘rtacha 52 foizni tashkil etmoqda. Natijada, korxonalarining moliyaviy holati qoniqarsiz ahvolga kelib qolgan, sohaga xususiy biznes vakillarining qiziqishi deyarli mavjud emas hamda yetkazib berilgan energiya resurslaridan (tabiiy gaz, elektr energiyasi, sovuq suv) kreditor qarzdorliklari yildan yilga oshib bormoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, topshiriq ijrosi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga axborot berilishini ta‘minlash, shuningdek issiqlik ta‘minoti korxonalarining to‘lovchanlik qobiliyatini oshirish hamda ularning zarar bilan ishlashining oldini olish maqsadida, issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tariflarni qayta ko‘rib chiqishni belgilangan tartibda jadallashtirish hamda natijasi yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ma‘lumot berishingizni so‘raymiz.

Vazir o‘rinbosari



S. Sadullayev

Ijrochi: A. Gulboyev.
Tel.: (+998 71) 203-50-50, (01-349)